

SIN IMPERIYASINING INQIROZI DAVRIDA DINIY VAZIYAT VA DAVLAT SIYOSATI (1840–1912)**Adiba Muhamedova Asilbek qizi***"Ijtimoiy va siyosiy fanlar" instituti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola XIX asr o‘rtalaridan Sin imperiyasining qulashiga qadar bo‘lgan davrdagi (1840–1912) diniy jarayonlar va davlat siyosatini tadqiq etadi. Unda an’anaviy “Uch ta’limot” (Sanjiao) tizimining inqirozi, “teng huquqli bo‘lmagan shartnomalar” orqali xristian missionerligining agressiv kirib kelishi va uning ijtimoiy oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Taypinlar va musulmonlar qo‘zg‘olonlaridagi diniy omillar hamda XX asr boshidagi sekulyarizatsiya islohotlarining imperiya tanazzulidagi hal qiluvchi o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sin imperiyasi, diniy siyosat, Sanjiao, xristian missionerligi, Taypinlar harakati, musulmon qo‘zg‘olonlari, modernizatsiya, sekulyarizatsiya.

Abstract: This article investigates the religious landscape and state policies during the crisis period of the Qing Empire (1840–1912). It analyzes the decline of the traditional "Three Teachings" (Sanjiao) system and the social impact of Christian missionary expansion facilitated by the "Unequal Treaties." Furthermore, the study examines the role of religious factors in the Taiping and Muslim rebellions, as well as the late Qing modernization reforms, highlighting how religious conflicts contributed to the collapse of the imperial dynasty and the transition to a modern state.

Keywords: Qing Empire, religious policy, Sanjiao, Christian missions, Taiping Rebellion, Muslim uprisings, modernization, secularization.

Аннотация: В статье исследуются религиозная ситуация и государственная политика в период кризиса империи Цин (1840–1912). Анализируется упадок традиционной системы «Саньцзяо», влияние экспансии христианских миссий в условиях «неравноправных договоров», а также религиозные аспекты восстания тайпинов и мусульманских бунтов. Особое внимание уделяется попыткам модернизации и секуляризации в начале XX века, которые сыграли ключевую роль в падении империи и трансформации государственно-религиозных отношений.

Ключевые слова: Империя Цин, религиозная политика, Саньцзяо, христианские миссии, восстание тайпинов, мусульманские восстания, модернизация, секуляризация

XIX asrning o‘rtalari Xitoyning so‘nggi imperatorlik sulolasi – Sin (Qing, 1644–1911) tarixida tub burilish davri, aniqrog‘i, chuqur tizimli inqirozning boshlanish nuqtasi sifatida

xarakterlanadi. Bu davr nafaqat geosiyosiy mag‘lubiyatlar, balki asrlar davomida shakllangan an’anaviy dunyoqarash va diniy-mafkuraviy tizimning darz ketishi bilan ham ajralib turadi. Jon King Feyrbent (John King Fairbank) ta’biri bilan aytganda, XIX asr o‘rtalarida Xitoy "an’ana va zamonaviylik to‘qnashuvi"ning eng keskin pallasiga kirdi, bu esa mamlakatni ham ichki, ham tashqi tomondan yemira boshladi. Mazkur davrdagi ijtimoiy-siyosiy va diniy vaziyatni tushunish uchun uchta asosiy omilni: sulolaviy tanazzul, G‘arb imperializmining agressiv kirib kelishi va an’anaviy e’tiqod tizimining transformatsiyasini tahlil qilish lozim.

Siyosiy jihatdan, XIX asr o‘rtalariga kelib, "Manjur tinchligi" (Pax Manjurica) davri o‘z nihoyasiga yetgan edi. Imperiyada klassik "sulolaviy sikl" nazariyasiga xos bo‘lgan tanazzul belgilari yaqqol namoyon bo‘ldi. Aholi sonining keskin o‘sishi (1850-yilga kelib 430 millionga yaqinlashgani) va haydaladigan yer maydonlarining yetishmasligi agrar sektorda jiddiy demografik bosimni yuzaga keltirdi. Filipp Kun (Philip Kuhn) o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, mahalliy boshqaruv tizimidagi korrupsiya, byurokratik apparatning samarasizligi va imperator saroyining xalqdan uzoqlashishi markaziy hokimiyatning legitimligini (qonuniyligini) shubha ostiga qo‘ydi. Bu holat jamiyatda ijtimoiy adolatsizlik hissini kuchaytirib, diniy-mistik g‘oyalar bilan sug‘orilgan xalq harakatlarining (masalan, Oq Lotus jamiyati qoldiqlari) qayta bosh ko‘tarishiga zamin yaratdi.

XIX asrning 40-yillari, shuningdek, Xitoyning "yopiq eshiklar" siyosatining barbod bo‘lishi bilan tarixda qoldi. Birinchi "Afyun urushi" (1839–1842) va uning natijasida imzolangan Nankin shartnomasi Sin imperiyasining xalqaro maydondagi mavqeini keskin pasaytirdi. Bu mag‘lubiyat nafaqat iqtisodiy va hududiy yo‘qotish, balki konfutsiylik dunyoqarashidagi "Xitoy markazlashuvi" (Sinocentrism) g‘oyasiga berilgan qaqshatqich zarba edi. Imperatorning "Osmon o‘g‘li" va "butun olam hukmdori" sifatidagi sakral maqomi g‘arblik "varvarlar" tomonidan tahqirlandi. Bu vaziyat jamiyatda ma’naviy bo‘shliq va tushkunlikni keltirib chiqardi, bu esa o‘z navbatida, an’anaviy qadriyatlarga muqobil yoki ularni radikal isloh qiluvchi yangi diniy oqimlarga talabni oshirdi.

Diniy vaziyatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Sin imperiyasida davlat va din munosabatlari o‘ta murakkab iyerarxiyaga asoslangan edi. Rasmiy davlat mafkurasi bo‘lgan neokonfutsiylik jamiyatning axloqiy va ijtimoiy tartibini belgilab bergan bo‘lsa-da, oddiy xalq orasida buddizm, daosizm va mahalliy animistik e’tiqodlarning sinkretik (aralash) shakli hukmron edi. Vinsent Gussart (Vincent Goossaert) o‘zining zamonaviy Xitoydagi diniy masalalar bo‘yicha tadqiqotida, Sin davlati dinlarni qat’iy ravishda "ortodoksal" (to‘g‘ri ta’limot) va "geterodoksal" (yovuz ta’limot) toifalariga ajratganini ko‘rsatadi. Davlat nazoratidagi ibodatxonalar qo‘llab-quvvatlangan, ammo siyosiy tusga ega bo‘lgan har qanday diniy uyushma shafqatsiz ta’qib qilingan.

Biroq, XIX asr o‘rtalarida G‘arb davlatlari bilan imzolangan "teng huquqli bo‘lmagan shartnomalar" (Whampoa va Tyantszin shartnomalari) diniy landshaftni tubdan o‘zgartirdi. Xorijiy missionerlarga Xitoy ichkarisida erkin harakatlanish, cherkovlar qurish va o‘z dinini targ‘ib qilish huquqining berilishi, mahalliy "shenshi" (olim-amaldorlar) qatlami va konfutsiylik an‘analariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid sifatida qabul qilindi. Pol Koen (Paul Cohen) ta‘kidlaganidek, xristianlikning bu tarzda agressiv kirib kelishi nafaqat madaniy to‘qnashuv, balki mahalliy aholi orasida ksenofobik kayfiyatning va anti-missionerlik harakatlarining kuchayishiga olib keldi. Missionerlarning ekstraterritorial huquqdan foydalanib, mahalliy sud ishlariga aralashuvi va yangi qabul qilingan xristian xitoyliklarni ("guruch xristianlari") himoya qilishi, jamiyatda diniy asosdagi bo‘linishni chuqurlashtirdi.

Shu bilan birga, imperiyaning chekka hududlarida, xususan, shimoli-g‘arbda va Yunnanda islom omilining faollashuvi kuzatildi. Markaziy hukumatning zaiflashuvi va etnik kamsitish siyosati musulmon (Hui va Uyg‘ur) jamoalarining radikallashuviga va o‘z diniy-milliy o‘zligini himoya qilish yo‘lida birlashuviga turtki bo‘ldi. Bu davrda din endi shunchaki shaxsiy e‘tiqod masalasi emas, balki ijtimoiy safarbarlik va siyosiy kurash quroliga aylana boshladi. Buning eng yorqin misoli sifatida, xristianlik va xitoy utopizmini o‘zida birlashtirgan Taypinlar harakatini (1850–1864) keltirish mumkin. Jonatan Spens (Jonathan Spence) o‘zining fundamental asarida ko‘rsatganidek, Xon Syutsyuanning "Samoviy podshohligi" an‘anaviy dinlarga (buddizm va daosizm) urush e‘lon qilib, Sin imperiyasining mafkuraviy asoslarini tag-tomiri bilan yo‘q qilishga urindi [5].

Xulosa qilib aytganda, XIX asr o‘rtalarida Sin imperiyasidagi vaziyat siyosiy inqiroz va ma‘naviy parokandalikning omuxtasi edi. Bir tomondan, ming yillik konfutsiylik tartibi G‘arb sivilizatsiyasi va texnologiyasi oldida o‘zining ojizligini namoyon etgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ichki ijtimoiy ziddiyatlar diniy tus olib, imperiyani ichidan portlatish darajasiga yetgan edi. Bu murakkab tarixiy sharoit keyingi o‘n yilliklardagi barcha yirik isyonlar va islohotlar uchun zamin hozirladi

XIX asrning ikkinchi yarmida Sin imperiyasining ma‘naviy-mafkuraviy hayoti ikki ulkan kuchning to‘qnashuvi ostida qoldi: asrlar davomida shakllangan an‘anaviy sinkretik tizimning ichki turg‘unligi va G‘arb davlatlari tomonidan majburan joriy etilgan xristian missionerligining tashqi bosimi. Ushbu ikki omilning o‘zaro ta‘siri imperiyaning ijtimoiy barqarorligini izdan chiqaruvchi asosiy katalizatorga aylandi.

Sin davlati (1644–1911) mafkurasi qat‘iy diniy chegaralarga emas, balki "**Sanjiao**" (Uch ta‘limot) – Konfutsiylik, Buddizm va Daosizmning uyg‘unlashuviga asoslangan edi. Garchi bu uch yo‘nalish alohida institutlarga ega bo‘lsa-da, Xitoy jamiyatining kundalik hayotida ular bir butunlikni hosil qilgan. Amerikalik sinolog C.K. Yang o‘zining klassik tadqiqotlarida ta‘kidlaganidek, Xitoyda din "institutSIONAL" (tashkiliy) va "diffuz" (tarqoq, kundalik hayotga

singgan) shakllarda mavjud bo‘lgan. Davlat darajasida Konfutsiylik ijtimoiy axloq va boshqaruv asosi hisoblangan bo‘lsa, Buddizm va Daosizm individual najot, marosimlar va metafizik ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilgan.

Sin hukumati diniy sohani nazorat qilish uchun **Maro simlar vazirligi** (*Li Bu*) orqali qat’iy reglament o‘rnatgan edi. Imperator "Osmon O‘g‘li" (*Tianzi*) sifatida oliy ruhoniylar maqomiga ega bo‘lib, koinot va jamiyat o‘rtasidagi muvozanat uchun mas’ul sanalgan. Buddizm va Daosizm ruhoniylariga faoliyat yuritish uchun davlat tomonidan maxsus litsenziyalar (*dudie*) berilgan va ularning soni qat’iy cheklangan. Biroq, XIX asrga kelib, bu tizim chuqur inqirozga yuz tutdi.

Birinchidan, Konfutsiylik ta’limotiga asoslangan davlat imtihonlari tizimi (*Keju*) intellektual turg‘unlik (stagnatsiya) holatiga kelib qoldi. Ta’limotning dogmatik talqini zamonaning yangi chaqiriqlariga, xususan, texnologik va harbiy muammolarga javob bera olmadi. *Ikkinchidan*, Buddha va Daos monastirlari korrupsiya o‘chog‘iga aylanib, o‘zlarining ma’naviy obro‘cini yo‘qotdilar. Oddiy xalq nazdida ruhoniylar ko‘pincha yer egalari yoki tekinoxorlar sifatida gavalana boshladi. *Uchinchidan*, rasmiy "Ortodoksal" dinlarning zaiflashuvi natijasida, davlat nazoratidan chetda bo‘lgan "Geterodoksal" (Bid’at) oqimlar va maxfiy jamiyatlar (masalan, "Oq Lotus") kuchaya boshladi. Bu esa jamiyatda diniy bo‘shliqni yuzaga keltirdi va bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun tashqaridan kirib kelayotgan kuchlarga – missionerlarga yo‘l ochdi.

XIX asr o‘rtalarida G‘arb davlatlarining harbiy bosimi ostida Sin imperiyasi "yopiq eshiklar" siyosatidan voz kechishga majbur bo‘ldi. Bu jarayon xristianlikning huquqiy maqomini tubdan o‘zgartirdi. Tarixchi Kennet Laturret (Kenneth Latourette) yozganidek, "Xristianlik Xitoyga to‘plar soyasida qaytib keldi". Bu davrdagi missionerlik faoliyati avvalgi davrlardan (masalan, XVII asrdagi Iyezuitalar missiyasidan) farqli o‘laroq, madaniy moslashuvga emas, balki xalqaro shartnomalar kuchiga tayangan tajovuzkor prozelitizmga asoslangan edi.

Missionerlik faoliyatining huquqiy asosi "**Teng huquqli bo‘lmagan shartnomalar**" tizimi orqali mustahkamlandi:

1. **Nankin shartnomasi (1842)**: Birinchi afyun urushidan so‘ng imzolangan bu hujjat 5 ta port shaharni ochdi va u yerda xorijliklarning yashashiga ruxsat berdi, ammo ichki hududlarga kirish hali cheklangan edi.

2. **Vampo shartnomasi (1844)**: Fransiya bilan imzolangan ushbu bitim imperatorning 1724-yildagi xristianlikni taqiqlash haqidagi farmonini bekor qilishga majbur qildi. Xristianlikka e’tiqod qilish endi jinoyat hisoblanmaydigan bo‘ldi.

3. **Tyantszin shartnomalari (1858)**: Ikkinchi afyun urushi natijasida imzolangan ushbu hujjatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, Britaniya va Fransiya bilan tuzilgan

shartnomaning 8-moddasida (va keyinchalik 13-moddada) "Xristianlik ezgu ishlarga chorlovchi dindir, uni tarqatuvchilar va qabul qiluvchilar ta'qib qilinmasligi kerak" degan band kiritildi. Eng muhimi, missionerlarga Xitoyning ichki hududlariga pasport bilan erkin sayohat qilish, yer sotib olish va cherkovlar qurish huquqi berildi.

Missionerlarning faoliyati faqat diniy targ'ibot bilan cheklanib qolmadi. Ular **ekstraterritoriallik** (mahalliy qonunlarga bo'ysunmaslik) huquqidan foydalanib, Xitoyning sud-huquq tizimini falaj holatiga keltirdilar. Pol Koenning (Paul Cohen) tadqiqotlarida keltirilishicha, katolik missionerlari (ayniqsa, Fransiyaning "Diniy protektorat" siyosati ostida) ko'pincha mahalliy amaldorlar bilan tengma-teng gaplashib, sud jarayonlariga aralashganlar. Ko'plab xitoyliklar sud jazosidan qutulish yoki soliq imtiyozlariga ega bo'lish maqsadida xristianlikni qabul qila boshladilar. Xalq orasida bundaylar "**Guruch xristianlari**" (*Chi jiao*) deb atalib, ularga nisbatan nafrat kuchaydi. Missionerlar mahalliy aholi uchun muqaddas sanalgan ajdodlar ibodatxonalarini sotib olib cherkovga aylantirishi, konfutsiylik marosimlarini (ayniqsa, ajdodlarga sig'inishni) "butparastlik" deb qoralashi ijtimoiy portlashlarga zamin yaratdi. Bu jarayonlar tarixda "**Jiao'an**" (Missionerlik ishlari) deb nomlangan yuzlab mahalliy to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. Shunday qilib, Sin imperiyasining so'nggi yillarida an'anaviy "Uch ta'limot" tizimi o'zining birlashtiruvchi kuchini yo'qotdi. G'arb missionerligi esa shunchaki yangi din emas, balki imperializmning siyosiy quroli sifatida kirib keldi. Bu ikki jarayon – ichki mafkuraviy inqiroz va tashqi diniy ekspansiya – 1900-yildagi Ixetuan (Bokschilar) qo'zg'olonida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan ksenofobiya va zo'ravonlik portlashini keltirib chiqardi.

Sin imperiyasining so'nggi yarim asrlik tarixi diniy e'tiqodning jamiyatni safarbar qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda din ikki xil qiyofada namoyon bo'lib, dastlab imperiya yaxlitligiga tahdid soluvchi radikal isyonlar bayrog'i sifatida, keyinchalik esa davlatni modernizatsiya qilish yo'lidagi institutsional islohotlar obyekt sifatida gavdalandi. XIX asr o'rtalarida Sin imperiyasini larzaga keltirgan, insoniyat tarixidagi eng qonli fuqarolar urushlaridan biri bo'lgan Taypinlar harakati (1850–1864) an'anaviy xitoy jamiyatidagi diniy tafakkurning keskin transformatsiyasini ko'rsatib berdi. Harakat rahbari Xon Syutsyuan protestant missionerlarining risolalari ta'sirida o'zini "Iso Masihning ukasi" deb e'lon qilib, g'arb xristianligi va xitoyliklarning qadimgi "Buyuk tinchlik" haqidagi utopik qarashlarini o'zida birlashtirgan "Xudoga sig'inuvchilar jamiyati"ni tuzdi. Jonatan Spens ta'kidlaganidek, bu harakat Sin sulolasining "manjur hukmronligi"ga qarshi qaratilgan bo'lib, u konfutsiylik va buddizmga to'laqonli diniy urush e'lon qildi. Taypinlar egallagan hududlarda "butparastlik" ramzi bo'lgan an'anaviy ibodatxonalar vayron qilindi, Konfutsiy yozuvlari yoqib yuborildi va yerga egalik qilishda "Samoviy tenglik"

g‘oyasi ilgari surildi, bu esa an‘anaviy xitoy elitasini dahshatga solib, ularning qarshiligini kuchaytirdi.

Ayni shu davrda imperiyaning g‘arbiy hududlarida yuz bergan musulmon qo‘zg‘olonlari shunchaki mahalliy isyon emas, balki mintaqaning geosiyosiy xaritasini o‘zgartirishga qaratilgan, chuqur diniy va etnik ildizlarga ega keng ko‘lamli harakatlar edi. Yunnanda xan millatiga mansub konchilar va mahalliy musulmonlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat hamda kamsituvchi siyosat oqibatida Du Vensyu boshchiligida Panthay qo‘zg‘oloni (1856–1873) ko‘tarildi. Du Vensyu Dali shahrini egallab, "Pingnan" (Tinchlangan Janub) davlatini tuzdi va strategik maqsadlarda buddizm hamda daosizm vakillari bilan ittifoq tuzishga urindi. U o‘z davlatini saqlab qolish uchun xalqaro maydonga chiqishga harakat qilib, Buyuk Britaniya qirolichasi Viktoriyaga rasmiy maktub va sovg‘alar yuborib, harbiy yordam so‘radi. Vaziyat Shimoli-g‘arbiy Xitoyda yanada keskinroq tus oldi, bu yerda 1862-yilda boshlangan dunganlar qo‘zg‘oloni tez orada Sharqiy Turkistonga ko‘chib, Qo‘qon xonligi lashkarboshisi Yoqubbek tomonidan mustaqil "Yettishahar" davlatining tuzilishiga olib keldi. Yoqubbek o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun diniy legitimlikdan ustalik bilan foydalandi va 1873-yilda Usmonli imperiyasi sultoni hamda Islom xalifasi Abdulaziz I tomonidan rasman tan olinib, unga "Amir-ul mo‘minin" unvoni berildi. Qashqar va boshqa shaharlarda xutbalarning Xalifa nomiga o‘qilishi Sin suverenitetiga berilgan jiddiy zarba edi. Bu hudud ayni paytda Rossiya va Britaniya imperiyalari o‘rtasidagi "Buyuk O‘yin" maydoniga aylandi; Britaniya Hindiston xavfsizligi uchun Yoqubbekni qurol bilan ta‘minlagan bo‘lsa, Rossiya mintaqadagi beqarorlikdan xavotirga tushdi. Biroq, Sin hukumati general Zuo Szuntan boshchiligida zamonaviy artilleriya yordamida shafqatsiz jazo yurishlarini amalga oshirdi. Tarixchi Jonatan Lipman yozganidek, hukumat musulmonlarni "tuzatib bo‘lmas ichki dushman" sifatida ko‘rganligi sababli, Shensi va Gansu provinsiyalarida musulmon aholisi soni 90 foizgacha qisqarib, ommaviy qirg‘in va majburiy migratsiya yuz berdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, xususan, 1900-yildagi Ixetuan qo‘zg‘oloni bostirilgach, Sin hukumati o‘zining omon qolishi uchun tub islohotlar zarurligini anglab yetdi va 1901-yildan boshlangan "Yangi siyosat" doirasida diniy sohada radikal o‘zgarishlarga qo‘l urdi. Islohotchi amaldor Chjan Chjidong tashabbusi bilan "Ma‘badlarni maktablarga aylantirish" harakati boshlandi, unga ko‘ra davlat g‘aznasi bo‘shligi sababli, yangi dunyoviy ta‘lim tizimini joriy etish uchun mahalliy budda va daos ibodatxonalari musodara qilinib, maktablarga aylantirildi. Vinsent Gussartning tadqiqotlariga ko‘ra, bu jarayon shunchaki iqtisodiy chora emas, balki "Din" tushunchasining yangicha talqini edi. Bu davrda xitoy ziyolilari G‘arb ta‘sirida diniy tushunchalarni qayta ko‘rib chiqib, xristianlik, islom va buddizmni tizimlashgan "Din" (Zongjiao) deb e‘tirof etgan holda, an‘anaviy xalq e‘tiqodlari, folbinlik va mahalliy ruhlarga sig‘inishni "Xurofot" (Mixin) va taraqqiyot to‘sig‘i sifatida

qoraladilar. Natijada, minglab qishloq ibodatxonalarini faoliyati to‘xtatildi, rohiblarning ijtimoiy maqomi pasaytirildi va an’anaviy diniy tuzilmalar davlat nazorati ostidagi uyushmalarga birlashishga majbur bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, Sin imperiyasining so‘nggi davridagi diniy jarayonlar ziddiyatli evolyutsiyani bosib o‘tdi. XIX asr o‘rtalarida din Taypinlar va musulmonlar misolida imperiyani parchalashga qaratilgan kuchli qurol bo‘lgan bo‘lsa, XX asr boshida davlat dinni "madaniylashtirish" va modernizatsiya qilish orqali uni o‘z nazoratiga olishga urindi. Bu o‘zgarishlar Xitoyning an’anaviy "Uch ta‘limot" tizimidan zamonaviy milliy davlat modeliga o‘tishidagi og‘riqli, ammo hal qiluvchi bosqich bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Sin imperiyasining qulashi shunchaki harbiy mag‘lubiyatlar yoki iqtisodiy turg‘unlik natijasi emas, balki asrlar davomida davlat barqarorligini ta’minlab kelgan an’anaviy diniy-mafkuraviy tizimning to‘liq parchalanishi oqibati ham edi. Diniy omil ushbu tarixiy jarayonda imperiya poydevorini yemiruvchi va ijtimoiy portlashlarni tezlashtiruvchi asosiy katalizator vazifasini o‘tadi. XIX asr davomida imperatorning "Osmon o‘g‘li" sifatidagi sakral maqomi va konfutsiylik axloqiga asoslangan boshqaruv tizimi G‘arb sivilizatsiyasi, xususan, xristian missionerligining mafkuraviy bosimi ostida desakralizatsiya jarayonini (muqaddaslikdan mahrum bo‘lish) boshdan kechirdi. Bu holat jamiyatda chuqur ma’naviy bo‘shliqni yuzaga keltirib, aholining turli qatlamlarini muqobil, ko‘pincha radikal diniy g‘oyalar atrofida birlashishga undadi.

Shu bilan birga, diniy motivlar bilan sug‘orilgan ichki ziddiyatlar – Taypinlar harakati va musulmon qo‘zg‘olonlari imperiyaning insoniy va moddiy resurslarini holdan toydirib, markaziy hokimiyatning o‘z fuqarolari ustidan nazorat o‘rnata olmasligini fosh etdi. Sin hukumati tomonidan so‘nggi yillarda amalga oshirilgan "ma’badlarni maktablarga aylantirish" kabi modernizatsiya urinishlari esa kechikkan chora bo‘lib, ular chuqurlashib ketgan "mafkuraviy vakuum"ni to‘ldira olmadi. Pirovardida, 1912-yilgi inqilob va Sin sulolasining taxtdan voz kechishi nafaqat bir siyosiy tuzumning yakuni, balki Xitoyning an’anaviy teokratik imperiya modelidan voz kechib, diniy va dunyoviy sohalar ajratilgan zamonaviy milliy davlat qurilishi sari burilish y asaganligining tarixiy ifodasi bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamidov, H. Xitoy madaniyati va tarixi. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018.
2. Imomnazarov, M. Sharq falsafasi va madaniyati tarixidan lavhalar. Toshkent: "Sharq", 1999.
3. Sodiqov, H. va boshqalar. Osiyo va Afrika mamlakatlari tarixi (Yangi davr). Toshkent: "O‘zbekiston", 2003.

4. Xo‘jayev, A. Sin imperiyasining Markaziy Osiyodagi istilochilik siyosati va uning oqibatlari. Toshkent: "Fan", 1991.
5. Xo‘jayev, A. & Karimova, N. Xitoy tarixi. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2013.
6. Cohen, Paul A. China and Christianity: The Missionary Movement and the Growth of Chinese Antiforeignism, 1860-1870. Harvard University Press, 1963.
7. Duara, Prasenjit. Rescuing History from the Nation: Questioning Narratives of Modern China. University of Chicago Press, 1995.
8. Fairbank, John K. The Great Chinese Revolution: 1800-1985. New York: Harper & Row, 1986.
9. Goossaert, Vincent & Palmer, David A. The Religious Question in Modern China. University of Chicago Press, 2011.
10. Kuhn, Philip A. Rebellion and Its Enemies in Late Imperial China: Militarization and Social Structure, 1796-1864. Harvard University Press, 1970.
11. Latourette, Kenneth S. A History of Christian Missions in China. New York: Macmillan, 1929.
12. Lipman, Jonathan N. Familiar Strangers: A History of Muslims in Northwest China. University of Washington Press, 1997.
13. Spence, Jonathan D. God's Chinese Son: The Taiping Heavenly Kingdom of Hong Xiuquan. W. W. Norton & Company, 1996.
14. Spence, Jonathan D. The Search for Modern China. W. W. Norton & Company, 1990.
15. Yang, C.K. Religion in Chinese Society: A Study of Contemporary Social Functions of Religion and Some of Their Historical Factors. University of California Press, 1961.
16. "Shenbao" (Shanghai News) newspaper archives (1872–1912).